© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

UDK:94(575.171):339“13/14”

XIX–XV ASIRLARDA XORAZMNING SHARQIY YEVROPA, VOLGABO‘YI VA YEVROPA MAMLAKATLARI BILAN SAVDO-IQTISODIY VA MADANIY ALOQALARI

Jumaniyozov Doniyor Xudoyorovich
Urganch Innovatsion universiteti
Ijtimoiy-gumanitar va tillar kafedrasi o‘qituvchisi
Telefon raqam: +998 99 664 01 00
Elektron pochta: djumaniyozov201@gmail.com
Orcid : 0009-0009-8056-5047
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.23028130

Annotatsiya: Mazkur tadqiqotda X–XV asrlarda Xorazm vohasining Sharqiy Yevropa, Volgabo‘yi, Rus knyazliklari va Yevropaning ayrim hududlari bilan shakllangan savdo-iqtisodiy hamda madaniy aloqalari kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotda Xorazmning Hazar xonligi, Volga Bulg‘oriyasi va Oltin O‘rda siyosiy-iqtisodiy tizimlari bilan munosabatlari, shuningdek, vohaning Yevroosiyoning sharqiy va g‘arbiy hududlarini bog‘lovchi savdo yo‘llaridagi tranzit mavqeyi yoritiladi. Yozma, arxeologik va numizmatik manbalarni qiyosiy tahlil qilish asosida Gurganj va boshqa shaharlarning mintaqalararo savdo almashinuvidagi o‘rni, karvon yo‘llarining yo‘nalishlari hamda tovar va pul muomalasining asosiy xususiyatlari aniqlanadi. Tadqiqot natijalari Xorazmning shimoliy savdo yo‘nalishlari doirasida nafaqat iqtisodiy, balki madaniy va ijtimoiy aloqalarni amalga oshirgan muhim mintaqaviy markazlardan biri bo‘lganini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Xorazm, Gurganj, Hazar xonligi, Volga Bulg‘oriyasi, Oltin O‘rda, Rus knyazliklari, Buyuk Ipak yo‘li, shimoliy tarmoq, tranzit savdo, arxeologik manbalar.

KIRISH

Xorazm vohasi geografik joylashuviga ko‘ra qadimdan Yevroosiyo qit’asining muhim strategik chorrahalaridan biri bo‘lib kelgan. Neolit, bronza va ilk temir davrlaridan boshlanib, miloddan avvalgi I ming yillikda skif-sarmat doirasidagi eroniy tilli etnoslar hamda Markaziy Osiyo davlatchiligi shakllanishi bilan mustahkamlangan mintaqaviy aloqalar ilk o‘rta asrlarda yangi bosqichga ko‘tarildi. 1937–2000-yillarda Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi hamda Qoraqalpog‘iston arxeolog olimlari olib borgan keng qamrovli tadqiqotlar vohaning Volgabo‘yi, Sharqiy Yevropa va Sibir xalqlari bilan ko‘p tarmoqli aloqalarini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

Xorazmlik tijoratchilarning Dashti Qipchoq, Hazariya, Volga Bulg‘oriyasi hamda Rus knyazliklari bilan olib borgan savdo munosabatlari va ushbu aloqalarning Yevroosiyo tranzit tizimidagi o‘rnini atroflicha o‘rganish maqolaning asosiy maqsadini tashkil etadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida tarixiylik, qiyosiy-manbashunoslik va tizimli-strukturaviy tahlil usullaridan foydalanildi. X–XV asrlarga oid arab-fors yozma manbalari (al-Istahriy, al-Mas’udiy, Ibn Havkal, al-Muqaddasiy, Ibn Fadlan, Ibn Battuta), Yevropa sayyohlarining axborotlari (Plano Karpini, Marko Polo, Pegolotti) hamda zamonaviy arxeologik va numizmatik ma’lumotlar o‘zaro qiyoslanib, ilmiy umumlashtirildi.

Natijalar

X–XI asrlarda Xorazmning Hazar xonligi bilan aloqalari harbiy-siyosiy va iqtisodiy darajada shakllandi. Arab manbalarida keltirilishicha, al-Istahriy xorazmlik savdogarlar qo‘liga turk, slavyan

© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

va hazar qullari hamda qimmatbaho mo‘ynalar tushganini yozsa, al-Mas’udiy va Ibn Havkal Hazar xoqoni qo‘shinining asosini 12 ming kishilik xorazmlik yollanma askarlar tashkil etgani va ularning o‘z vaziriga ega bo‘lganini ta’kidlaydi [1; 2]. Hazar poytaxti Itilning Xazaron qismida va Bulg‘orda yirik xorazmliklar jamoalari faoliyat yuritgan [3; 4]. O‘z navbatida, Urganchda ham hazar, alan va slavyan mahallalari mavjud bo‘lib, bu manzilgohlar hatto mo‘g‘ullar bosqini davrigacha saqlanib qolgan [5].

Xorazm va Rus o‘rtasidagi muntazam tijorat IX–X asrlardan jadallashdi. Knyaz Vladimir 988-yilda xristianlikni qabul qilishidan oldin xorazmlik savdogarlar bilan islom dini haqida muloqot qilgani manbalarda qayd etilgan [6]. Al-Beruniy va Plano Karpini Xorazmda rus xristian jamoalari bo‘lganini, Beruniy ularning “kalandas” (kolyada) bayramini eslab o‘tgani ushbu madaniy muloqotning dalilidir [5; 7].

Sharqdan ipak, paxta gazlamalari, quritilgan mevalar va zargarlik buyumlari olib ketilgan bo‘lsa, Rusdan mo‘yna, mum, asal, zig‘ir hamda metall buyumlar keltirilgan [8]. XIV asrda florensiyalik savdogar Franchesko Balduchchi Pegolotti Urganchni Yevropa bozorlari uchun barcha zarur mollar jamlangan eng yirik savdo markazi sifatida e’tirof etgan [9].

Muhokama

Oltin O‘rda davrida (XIII–XIV asrlar), xususan O‘zbekxon va Jonibek xonlar hukumronligida Buyuk Ipak yo‘lining shimoliy tarmog‘i o‘z rivojining cho‘qqisiga chiqdi. Gurganj (Urganch) maydoni 400 gektarga yetib, Oltin O‘rda uchun tangalar zarb qilinadigan va Yevroosiyo tovarlari to‘planadigan yirik megapolisga aylandi [4; 10]. Ustyurt karvon yo‘llari orqali Saroychik, Hojitarxon, Saroy Botu, Saroy Berka hamda Nijniy Novgorod, Moskva va Vladimir kabi rus shaharlariga karvonlar qatnagani arxeologik va kartografik izlanishlarda o‘z tasdig‘ini topgan [11; 12].

Janpikqal’a, Qo‘hna Urganch va Shemaxaqal’a yodgorliklaridan topilgan qayin po‘stlog‘i o‘ramlari Volgabo‘yi va Sibirdan teri oshlash va hunarmandchilik ehtiyojlari uchun xomashyo keltirilganini ko‘rsatadi [13]. Biroq XIV asr oxirida Amir Temurning Oltin O‘rdaga yurishlari va keyinchalik yuzaga kelgan feodal tarqoqlik shimoliy tarmoq faoliyatini susaytirdi. Ushbu tanazzul XVI–XVIII asrlarda Rossiyaning Volgabo‘yi va Sibirni egallab, Xiva xonligi chegaralariga yaqinlashguniga qadar davom etdi [8; 14].

Xulosa

Xorazm ilk va rivojlangan o‘rta asrlarda Sharqiy Yevropa, Volgabo‘yi, Sibir va Yaqin Sharqni bog‘lovchi asosiy transkontinental tranzit markaz vazifasini bajardi.

Xorazmlik tijoratchilar va hunarmandlar Hazar xonligi, Volga Bulg‘oriyasi, Rus knyazliklari hamda Oltin O‘rda shaharlarida nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlarga ham faol ta’sir ko‘rsatdilar.

XIV asrgacha bo‘lgan davrda Gurganj Yevropa va Osiyo bozorlarini bog‘lovchi strategik tugun bo‘lib, Buyuk Ipak yo‘lining shimoliy tarmog‘ida barqaror savdo-sotiq va pul muomalasini ta’minlab berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Материалы по истории туркмен и Туркмении (МИТТ). Т. 1. – Москва–Ленинград: Изд-во АН СССР, 1939. – С. 180.
2. История народов Узбекистана. Т. 1. – Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1950. – С. 229–231.
3. Машарипов Қ. Хоразмнинг Ўрта Шарқ ва Европа давлатлари савдо марказлари билан тарихий алоқалари (X–XV асрлар). – Урганч, 2005. – Б. 96.
4. Ibn Battuta. The Travels of Ibn Battuta, A.D. 1325–1354. Vol. III. / Translated by H.A.R. Gibb. – Cambridge: Cambridge University Press, 1971. – P. 541–547.

© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

5. Джованни дель Плано Карпини. История монгалов / Пер. А.И. Малеина. – Санкт-Петербург, 1911. – С. 52–56.
6. Толстов С.П. Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab. – Toshkent: Fan, 1964. – B. 242–275.
7. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. T. 1. – Toshkent: Fan, 1968. – B. 185–188.
8. Очерки истории Каракалпакской АССР. Т. 1. – Ташкент: Наука, 1964. – С. 89–92.
9. Хенниг Р. Неведомые земли. Т. 3. – Москва: Наука, 1962. – С. 211.
10. Федоров-Давыдов Г.А. Нумизматика Хорезма золотоордынского периода // Нумизматика и эпиграфика. – Т. 5. – Москва: Наука, 1965. – С. 179–224.
11. Кызласов И.Л. Аскизская культура (средневековые хакасы X–XIV вв.) // Степи Евразии в эпоху средневековья. – Москва: Наука, 1981. – С. 201–206.
12. Бубнова А., Половникова И.А. Торговые пути прибалтийского янтаря в Средней Азии (древность, средневековье) // Города и караван-сараи на трассах Великого Шёлкового пути. – Ташкент, 1996. – С. 27.
13. Манылов Ю.П., Кдырниязов М.-Ш. Городище Джанпык-кала // Археология Приаралья. – Вып. 2. – Ташкент: Фан, 1984. – С. 79.
14. Карпов С.П. Итальянские морские республики и Южное Причерноморье в XIII–XV вв.: проблемы торговли. – Москва: Изд-во МГУ, 1999. – С. 61–62.
15. Buniyodov Z. Anushtagin Xorazmshohlar davlati (1097–1231). – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1998. – B. 136.